

Olimpizmning ijtimoiy mohiyatini jismoniy tarbiya va sportni, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etishda ko'ramiz. Bu va boshqa ma'noda olimpizmning imkoniyatlari cheksizdir. Bunga kuchli ommaviy axborot vositalari, zamonaviy aloqa vositalari yordam bermoqda. Olimpizm an'analari, uning munosabati, ideallari katta xalqaro ahamiyatga ega; ular tabiatan gumanistik, ular jahon umumbashariy madaniyatining alohida qadriyatini tashkil etadi.

Olimpizmning zamonaviy ijtimoiy jarayonlar va hodisalarning keng doiradagi o'zaro ta'siri mexanizmini o'rganadigan ijtimoiy olimpiya harakati yer yuzining turli mintaqalari, irqi, millatlari, sinflari, dinlari, mafkuralari vakillarini birlashtiradi.

Xalqaro olimpiya akademiyasi va ko'plab mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda tashkil etilgan milliy olimpiya akademiyalari sessiyalarida ijtimoiy-pedagogik muammolarga katta ahamiyat berilmoqda. Kubertening ijtimoiy-pedagogik g'oyalarini targ'ib qilish bo'yicha katta tushuntirish ishlari uning nomidagi Xalqaro qo'mita tomonidan olib borilmoqda. Bu tashkilot sport va olimpiya harakatining eng dolzarb masalalariga bag'ishlangan ko'plab kitob va risolalar chop etilgan.

O'zbekiston MOQ Olimpizm konsepsiyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shmoqda va chuqur milliy an'analarga tayangan holda, butun xalqaro olimpiya harakatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq, bu fonda Olimpiya harakati g'oyalarini rivojlantirishda ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanining samarali ta'sirini kuchaytirish muhim. Olimpizm mavzusidagi nashrlar asosan Olimpiya harakati tarixidan ma'lum faktlarni, boshqa mamlakatlarning Olimpiya o'yinlaridagi natijalari bilan taqqoslaganda o'zbekistonlik sportchilarning

ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgan mashhur adabiyotlar xolos.

Olimpizm nazariyasi juda kam rivojlangan. Bu masala olimlarning umuman e'tiborini tortmagan.

Olimpiya harakatining ijtimoiy mohiyatiga, Olimpizm g'oyalari va qadriyatlariga, Olimpiya harakati tarixiga va Olimpiya o'yinlariga ta'sir qiluvchi masalalarga ko'proq e'tibor berish ushbu yo'nalishda samaradorlikka erishish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli Farmoniga muvofiq "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning maqsadi, vazifalari va uzoq muddatli rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilab berilgan. Chunonchi, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning, o'quvchi va talabalarning umumiy sonini oshirish; yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda «ta'lim muassasalari — sport maktabi — oliy sport» tamoyilida uzviylik tizimini hamda mashg'ulot va iqtidorli sportchi-yoshlarni saralash jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish; yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish kabilar o'rin olgan [1.3].

Bulardan kelib chiqib, ta'lim muassasalarida o'quvchi, talabalarni Olimpizm harakatlariga qiziqitirish, ushbu yo'nalishda bilimlarini oshirishda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ta'limiy vazifalardan sanaladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yana-da takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 24.01.2020 yil PF-5924-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.08.2020 yil 468-son. 2025 yilda O'zbekistonda yoshlar o'rtasidagi IV yozgi Osiyo o'yinlarini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish chora-tadbirlari to'g'risida.
3. Ma'murov, B.B. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi [Matn]: darslik / B. B.Ma'murov. - Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti. 2019. 224-b.

REZYUME. Maqolada Olimpiya harakatining ijtimoiy hamda pedagogik jarayon ekanligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan. O'zbekistonda Olimpiya harakatiga yosh sportchilarni tayyorlash va qatnashish borasidagi tarixiy tajribalar tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ. В статье дано научно-теоретическое обоснование Олимпийского движения как социальный и педагогический процесс. Проведён анализ исторических опытов подготовки и участия молодых спортсменов Узбекистана в Олимпийском движении.

SUMMARY. The article provides a scientific and theoretical substantiation of the Olympic movement as a social and pedagogical process. The analysis of historical experience of training and participation of young athletes of Uzbekistan in the Olympic movement was carried out.

YOSH SPORTCHILAR ORGANIZMINING TURLI JISMONIY MASHQLARGA ADAPTATSIYALANISH QOBILIYATLARI

P.Mamutov – assistent o'qituvchi

T.Bekbergenov – assistent o'qituvchi

A.Bekmurzaev – assistent o'qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: jismoniy rivojlanish, jismoniy faoliyat, adaptatsiya.

Ключевые слова: физическое развитие, физическая нагрузка, адаптация.

Key words: physical development, physical activity, adaptation.

Ma'lumki, jismoniy faollik inson tanasining funksional holatiga bevosita ta'sir qiladi. Jismoniy mashqlar paytida tananing yangi holatga moslashishi kerak bo'ladi. Jismoniy faoliyatga moslashishning ta'rifi shundaki, organizm nafaqat og'ir yuklarni ko'tarish hajmiga, yuqori yoki sekin tezlikka moslashadi, balki funksiyalarning o'zgarishiga, biokimyoviy jarayonlarga va ular keltirib chiqaradigan gumoral reaksiyalarga ham moslashadi. Bundan tashqari, musobaqa faoliyatining psixologik va emmotsional ko'rinishi o'zgaradi. Moslashuvchan funktsional tizimlarning xarakterli xususiyati ularning tashqi va ichki muhitning turli sharoitlarida bir xil natijalarga erishish uchun moslashuvchanligi va turg'unligi hisoblanadi [7].

Ushbu tizimlarning funksiyalari inson resurslarini maksimal darajada tejash bilan amalga oshiriladi [7,10].

Yosh sportchilar tanasining turli jismoniy yuklarga moslashishini o'rganishning dolzarbligi shubhasizdir, chunki jismoniy tarbiya va sport mamlakatimizning ko'plab yosh avlodlari va o'smirlari uchun hayot normasi va shaxsiy muvaffaqiyatning ajralmas atributiga aylanib bormoqda.

Ushbu ishning maqsadi yosh sportchilar tanasining turli jismoniy yuklarga va tashqi muhitga moslashish jarayonlarini o'rganish bo'lib hisoblanadi.

Sportda to'g'ri tashkil etilgan jismoniy mashqlar ta'sirida organizmda plastik jarayon kuchayadi, bu yosh sportchilarning o'sish davrida suyak to'qimalarining tez shakllanishiga olib keladi. Bu jarayon bolalik davrida ko'proq va aniq namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, 1,5-2,0 soat davom etadigan o'rtacha jismoniy faollik qondagi o'sish gormoni darajasining 3 barobar oshishiga olib kelishi mumkin. O'z-

o'zidan samotropin darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, odamning o'sishi shunchalik kuchli bo'ladi [11].

MATERIALLAR VA USULLAR

Organizmning normal harakatlanishi juda nozik tartibga soluvchi harakat tizimiga asoslangan. Bir tomondan, ham motor, ham vegetativ tizimlar, ikkinchi tomondan, vegetativ komponent kordiorespirator tizimlarning faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ularning asosini metabolism tashkil qiladi. Normal metabolism muayyan sharoitlarda amalga oshiriladi, bu gomeostaz deb ataladi va ichki muhitning doimiyli-gi va o'zini o'zi boshqarish jarayonlaridir. Sportchi or-ganizmi yashab turgan muxitdan boshqa sharoitlarga kir-ganda, masalan, tekis sharoitlardan baland tog'larga, mo'tadil iqlim zonasidan yuqori harorat va namlik zonasiga o'tganda, organizm sezilarli qiyinchiliklarni boshdan kechi-radi, ammo o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarining plasti-kligi tufayli gomeostazni saqlab qolish uchun organizm yangi sharoitlarga moslashadi. Inson bir standart vaqtga ega bo'lgan hududdan boshqa standart vaqtga ega zonaga o'tganda, organizmda sirkadiyalik ritmlar buziladi. Shuningdek, biron vaqt o'tgach, biologik ritmlar tanani yangi sharoitlarga moslashtiradi. Gomeostazni saqlab qolish uchun tananing yangi muhit sharoitlariga moslash-ishi yoki adaptatsiyalanishi akklimatizatsiya deb ataladi [8].

Organizmning holatiga, o'zgaruvchan sharoitlarning tez-qligiga qarab, akklimatizatsiya davri har hil bo'lishi mum-kin. Insonning baland tog'li iqlimda bo'lishi: baland tog'larning asosiy xususiyati siyrak atmosfera havosi, kislo-rodning ko'p yoki kamligi va uning qisman bosimi va hako-zalarga bo'g'liqdir. Bundan tashqari, baland tog'larda atrof-muhit haroratining pastligi, past namlik, kuchli quy-osh radiatsiyasi va kuchli shamollar mavjud. Atmosfera havosidagi qisman bosim pasayganda, alveolyar havoda uning bosimi pasayadi.

Kislorodning qonga o'tishi va gemoglobin bilan bog'lanishi natijasida u zaiflashadi, shuning uchun or-ganizmda kislorod ochligi holati rivojlanadi, bu gipoksiya deb ataladi. Ushbu holatni bartaraf etish uchun kompen-satsion reaksiyalar o'z-o'zini tartibga solish mexanizmlari asosida rivojlana boshlaydi.

Birinchidan, qondagi kislorod etishmasligini bartaraf et-ish uchun nafas olish chastotasi va chuqurligi tufayli o'pkaning ventilyatsiyasi kuchayadi.

Ikkinchidan, akklimatizatsiya mexanizmi qonning kislo-rod sig'imining oshishi hisoblanadi; qondagi kislorodning kamayishi bilan qon refleksli ravishda depodan, ayniqsa taloqdan chiqariladi.

Uchinchidan, akklimatizatsiya mexanizmi qonning kislo-rod sig'imining oshishi bo'lib, qonda kislorodning kama-yishi bilan yurak tezligi refleksli ravishda kuchayadi va shuning bilan birgalikda, qon oqimi tezligining oshishi va tana to'qimalariga kislorod yetkazib berish kuchayadi. Shunday qilib, baland tog'li sharoitlarga moslashish quyidagilarga bog'liq:

1. Qizil qon hujayralari sonining ko'payishi

2. O₂ ni to'qimalarga yetkazib berishni oshirish.

Qonning kislorod hajmining oshishi 1,5 - 2 oygacha davom etadi [1,4].

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Yosh sportchilarning jismoniy faoliyatga moslashishini o'rganish sport nazariyasi va amaliyotining uslubiy asosla-rini tashkil etuvchi markaziy muammolardan biridir. Mos-lashuvning fiziologik mexanizmlari va qonuniyatlarini tushunish jismoniy tarbiya jarayonida salomatlikni saqlash va mustahkamlash, mehnat qobiliyatini oshirishning amaliy tibbiy-biologik va pedagogik muammolarini hal etishning kalitidir.

Atrof-muhitning (tashqi va ichki) o'zgarishlarga mos-lashish qobiliyati tirikchilikning asosidir, buni amalga oshirish qobiliyati inson tanasining eng muhim xususiyatid-ir. Biologik moslashish - bu gomeostazning funksional tiz-

imini yangi tartibga solish darajasiga qayta qurish bilan birga keladigan dinamik tebranish jarayoni hisoblanadi [6].

Harakat faoliyatining o'ziga xosligi yangi iqlim sha-roitlariga moslashish jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, desinxronoz tezlik, tezlik-kuch va murakkab koordinatsion mashqlarini bajarishga ko'proq ta'sir ko'rsatadi, chidamlilik mashqlarida esa uning ta'siri ancha kam. Sportchilarning ko'rsatkichlari ham oydan oyga, mavsumdan mavsumga o'zgarib turadi, ya'ni uzoq davr-larga ega bioritmlarga bog'liq. Biroq ular yetarlicha o'rganilmagan, shuning uchun hozirgi vaqtda ularni mu-rabbiylik amaliyotida qo'llash uchun ishonchli, dalillarga asoslangan shartlar mavjud emas [9].

Moslashuvning mohiyati inson tanasining imkoniyatlari ya'ni o'zgaruvchan (shu jumladan ekstremal) sharoitlarda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan funksional zaxiralari bilan chambarchas bog'liq. Funksional tizimni tashkil et-ishning qonuniyatlarini tushunib, uning individual bo'g'inlariga turli xil vositalar yordamida samarali ta'sir qilish va shu bilan umumiy jismoniy tayyorgarlikni oshirish natijasida jismoniy faoliyatga moslashishni tezlashtirish mumkin bo'ladi.

Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining uzoq muddatli jarayoni inson rivojlanishining yosh va individual xususiyatlarini, uning tayyorgarlik darajasini, tanlangan sport turining o'ziga xosligini, jismoniy sifatlar va ko'nikmalarini rivojlanish xususiyatlarini aniq hisobga ol-gan holda muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin.

Mashg'ulotlar samorodorigi jismoniy yuklamalar tasir-ida sodir bo'ladigan fiziologik va biokimyoviy o'zgarishlarning yo'nalishi va hajmiga bog'liq. Shu bilan birga, organizmdagi o'zgarishlar samorodorigi jismoniy yuklamalarning asosiy xususiyatlari bilan belgilanadi:

- bajariladigan mashqlarning intensivligi va davomiyligi;
- takrorlashlar soni;
- mashqlar orasidagi dam olish intervallarining davomi-yligi va xarakterini.

Yuqorida ko'rsatilgan parametrlarning va jismoniy yuklamalarning to'g'ri taqsimlanishi fiziologik nuqtai naz-ardan organizmning funksional holatidagi ijobiy o'zgarishlarga, mashg'ulotning etarlicha samorodorigiga erishish, metabolismni yaxshilanishiga va pirovardida jis-moniy tayyorgarlikni oshirish imkonini beradi.

Organizmning jismoniy yuklamalar ta'siriga moslashish jarayoni fazaviy xususiyatga ega. Moslashuvning ikki bos-qichini ajratish odatiy holdir: tezkor va uzoq muddatli (surunkali) [3,6].

Meyerson F.E. (1979) konsepsiyasiga ko'ra, ko'p marta-lik takroriy jismoniy yuklamalarga individual moslashish bir necha bosqichlardan o'tadi, shu bilan birga organizm-ni funksional imkoniyatlari ortib boradi. "Tezkor mos-lashish" ning birinchi bosqichi zaxira imkoniyatlarini to'liq safarbar qilish va mushaklarning harakatini ta'minlash uchun kompensatsiya mexanizmlarining deyarli chega-ralangan kuchlanishi bilan tavsiflanadi. Ikkinchi bosqich uzoq muddatli moslashishga o'tish davri bo'lib, tananing harakat va vegetativ funksiyalarini mushaklar koordi-natsiyasining rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Bu organizm-ni individual xususiyatlarga qarab, 8-15 oylik mashg'ulotlardan so'ng paydo bo'ladi. Dastlabki sport ixti-soslashuvi bosqichi bu jarayonning ham birinchi, ham ikkinchi bosqichlari oqimi bilan tavsiflanadi. Ushbu davrda yosh sportchining organizmi kislorod etishmovchiligining ortishiga juda sezuvchan bo'ladi. Jismoniy yuklamalarga uzoq muddatli moslashish natijasida to'qimalarda o'ziga xos oqsillar va nuklein kislotalarning sintezi faollashadi, bu tayanch-harakat tizimining barcha tuzilmalarining imkon-iyatlarini oshirishga, shuningdek uning energiya ta'minoti yaxshilanishiga olib keladi. Uzoq muddatli moslashish ja-rayonida morfofunktsional o'zgarishlar quyidagi jarayonlar bilan birga keladi:

- tartibga solish mexanizmlari munosabatlarini o'zgartirish;
- organizmning fiziologik zahiralari safarbar qilish va ulardan foydalanish;
- muayyan faoliyatga moslashishning maxsus funktsional tizimini shakllantirish [2,5].

XULOSALAR

Moslashuvning fiziologik mexanizmlari va qonuniyatlarini tushunish jismoniy tarbiya jarayonida salomatlikni saqlash va mustahkamlash, ish samaradorligini oshirishning amaliy tibbiy-biologik va pedagogik muammolarini hal etishning kalitidir. Moslashuv qonunlari alohida tizimlar va organlarning muvofiqlashtirilgan reaksiyalariga asoslanadi,

ular umuman butun organizmning optimal ishlashini ta'minlaydi. Aynan intensiv jismoniy mehnat paytida sportchilarda ovqat hazm qilish tizimi va ajratish tizimlarining faoliyatini tormozlanishi, buning natijasida qon aylanishi va nafas olish funktsiyalarini kuchaytirish uchun tananing zaxira imkoniyatlari saqlanib qoladi. Jismoniy faoliyatga moslashish inson tanasining funktsional holatidagi o'zgarishlar shaklida namoyon bo'ladi. Asosan, bu ko'rinishlar ijobiydir, ammo organizmga tushadigan yukning kattaligi, uning funktsional tizimlariga mos kelmasligi, aksincha ularning funktsional holatga salbiy ta'sir ko'rsatishi, turli kasalliklar va shikastlanishlarga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Вахитов И.Х. Физиология физического воспитания и спорта. -Казань. 2009. –С. 57.
2. Коц Я.М. -М.: Физкультура и спорт, 1986. –С.47-48.
3. Пономарева И. А. Физиология физической культуры и спорта / учебное пособие / И. А. Пономарева; Южный федеральный университет. -Ростов-на-Дону; -Таганрог: Южного федерального университета, 2019. –С. 82-83.
4. Сакин Н.А. Адаптация спортсмена к физическим нагрузкам. Н.А.Сакин, Н.Н.Ерохина. // Проблемы развития физической культуры и спорта в новом тысячелетии. 2015. – Т.1. -С. 236-239.
5. Уилмор Д.Х., Костилл Д.Л. Физиология спорта и двигательной активности. 1997. –С. 15.
6. Чеснова, Е.Л. Физическая культура / Е.Л. Чеснова. -М.: Директ-Медиа. 2013. –С. 60.
7. Фомин В.С. Физиологические основы управления подготовкой высококвалифицированных спортсменов. Учебное пособие. -М.: 1984. –С.49.
8. Смирнов В.М., Дубровский В. И. Физиология физического воспитания и спорта: Учеб. для студ. сред. и высш. учебных заведений. -М.: «Владос-пресс», 2002. –С. 572.
9. Капилевич Л.В. Физиология человека. Спорт: учеб. пособие для прикладного бакалавриата. Л.В. Капилевич. -М.: «Юрайт», 2016.
10. Корягина Ю.В. Курс лекций по физиологии физкультурно-спортивной деятельности: учебное пособие. Ю.В.Корягина, Ю.П.Салова, Т.П.Замчий. -Омск: Изд-во СибГУФК, 2014. –С. 87.
11. Киричук В.Ф. Физиология крови. –Саратов: Саратовский государственный медицинский университет. 1999. –С. 14.

REZYUME. Tadqiqot Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida olib borildi. Maqolada yosh sportchilar tanasining turli jismoniy yuklarga moslashish jarayonlari bo'yicha tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Bu muammoning dolzarbligi shubhasizdir, chunki jismoniy tarbiya va sport mamlakatimizda ko'plab vosh avlod va o'smirlar uchun havot normasi va shaxsiy muvaffaqiyatning airalmas atributiga aylanib bormoqda. Aniqlanishicha, muntazam jismoniy faollik organizmning o'sish jarayonlarining tezlashishiga vordam beradi, nafas olish, mushaklarining kuchi va chidamliligini oshirish, havot qobiliyatini oshirish shaklida organlar va tizimlarning funktsional holatini o'zgartirishga vordam beradi. Biroq, individual xususiyatlarga mos kelmaydigan yoki noqulay ekologik sharoitda sodir bo'ladigan jismoniy faoliyat turli kasalliklar va jarohatlarga olib kelishi mumkin.

РЕЗЮМЕ. Исследование проводилось в Нукусском государственном педагогическом институте имени Ажинияза. В статье представлены результаты исследования процессов адаптации организма юных спортсменов к различным физическим нагрузкам. Актуальность данной проблемы несомненна, так как физическая культура и спорт становятся нормой жизни и неотъемлемым атрибутом личного успеха для многих молодых людей и подростков в нашей стране. Установлено, что регулярная физическая нагрузка способствует ускорению процессов роста организма, изменению функционального состояния органов и систем в виде дыхания, повышению мышечной силы и выносливости, повышению жизненного тонуса. Однако физическая нагрузка, не соответствующая индивидуальным особенностям или происходящая в неблагоприятных условиях внешней среды, может привести к различным заболеваниям и травмам.

SUMMARY. The study was conducted at the Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz. The article presents the results of a study of the processes of adaptation of the organism of young athletes to various physical loads. The relevance of this problem is undeniable, since physical culture and sports are becoming the norm of life and an integral attribute of personal success for many young people and adolescents in our country. It has been established that regular physical activity accelerates the processes of body growth, changes in the functional state of organs and systems in the form of respiration, increases muscle strength and endurance, and increases vitality. However, physical activity that does not correspond to individual characteristics or occurs in adverse environmental conditions can lead to various diseases and injuries.

КАРАҚАЛПАҚСТАНДА МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘЛИМ СИСТЕМАСЫ ХӘМ ОНЫҢ РАҰАЖЛАНЫҰЫ

А.Машарипова – аға оқытыушы

Қарақалпақстан Республикасы педагогларды жаңа методикаларға үйретуі Миллий орайы

Таянч сўзлар: мактабгача таълим, мактабгача таълим ташиқлотлар, мактабгача ёш, мактабгача тарбия, боғча, хусусий боғча, мобиль боғча.

Ключевые слова: дошкольное образование, дошкольное учреждение, дошкольный возраст, дошкольное воспитание, детский сад, частный детский сад, мобильный детский сад.

Key words: preschool education, preschool foundation, preschool age, preschool upbringing, kindergarten, private kindergarten, mobile kindergarten

Өзбекстан Республикасы Президенти Ш.Мирзиёевтың 2017 жылы 9- сентябрьдеги «Мектепке шекемги билимлендириў системасын түп тийкарынан жетилистириў иләжлары ҳаққында» ғы ПҚ-3261-санлы қарары бизиң социаллық өмиримизди дәўир талабына сай жаңа баскышқа көтерди. Себеби, бизиң жарқын келешегимизди даўам еттириўши жас нәрестелеримиздиң тәрбиясы ҳәм оларды мектепке таярлаў бүгинги күнимиздиң ең баслы ўазыйпасы ҳәм келешегимиздиң тийкары болары анық. Хўрметли Президентимиздин бул қарары мектепке шекемги тәрбия ҳәм билимлендириў системасын тез пәт пенен заман талабына сай же-

тилистириў, жедел раўажландыриў олардың материаллық техникалық базасын бекемлеў ҳәм бундай тәрбия шөлкемлериниң тармақларын кенейтиў, оларды терең билим ҳәм көнликпеге ийе жетик маманлықтағы педагог ҳәм тәрбияшылар менен тәмийинлеў, мектепке шекемги жастағы балаларды мектепке таярлаў бағдарында түпкиликли жаңа дәўир көз-қарасынан жантасып, олардың тәлим-тәрбиялық жумысларының жаңа дәўир ҳәм миллий қәдриятларымыздың ең жоқары сыпаттағы қағыйдаларын қамтыйтуғын бағдарламаларын, технологияларын ислеп шығыў ҳәм жумыс процессине енгизиў, сондай-ақ усы ислерди әмелге асырыў ушын бул